

THE CHARACTERISTICS OF FORMING THE VOLUNTARY ASPECTS OF STUDENTS IN PROFESSIONAL DIRECTION

Eminjon Aliyevich Ergashev

Senior Teacher of The Department of Applied Psychology

Kokand State Pedagogical Institute

ANNOTATION

The article explains the importance of the volitional process from their individual characteristics and the importance of the formation of risk characteristics when directing students to the profession.

Key words: professional activity, choice of profession, decision-making, profession introduction, risk, education of Abulia, apraxia, will, will.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA IRODAVIY JIHATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI.

Eminjon Aliyevich Ergashev

Amaliy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning individual xususiyatlaridan irodaviy jarayonning ahamiyati va tavakkalchilik xususiyatlarini shakllantirish muhimligi izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, kasb tanlash, qarorni qabul qilish, kasbga yo'naltirish, tavakkalchilik, abuliya, apraksiya, iroda, irodani tarbiyalash.

АННОТАЦИЯ

В статье обосновано значение добровольческого процесса и формирования характеристик риска от их индивидуальных особенностей в направлении студентов к профессии.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, выбор профессии, принятие решений, профориентация, склонность к риску, абулия, апраксия, воля, воспитание воли.

Kasbiy faoliyat insonning shaxs sifatidagi komolotida hal qiluvchi omillardan biri ekan, kasb tanlashni dolzarb ijtimoiy muammo deb tushunish o'rinli bo'ladi. Inson o'z hayotida qabul qiladigan eng murakkab va mas'uliyatli qarorlardan biri kasb tanlash bilan bog'liq qarordir. Ushbu qarorni qabul qilishning murakkabligi unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haddan tashqari ko'pligi bilan ham izohlanadi. Har qanday murakkab qarorni qabul qilishda bo'lganidek kasbiy tanlovni amalga oshirishda adashmaslik uchun odam tajribali pedagogik-psixologik tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislariga muhtoj bo'ladi.

Inson kasb sohasidagi tanlovda adashmasligini ta'minlash, bunda unga amaliy yordam ko'rsatish zarurati kasbga yo'naltirish ishining vujudga kelishi uchun zamin hozirladi. Umumiy ravishda, kasbga yo'naltirish – bu yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish. Bu odamga o'z individual qobiliyatlari va jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar asosida kasb tanlashda yordam ko'rsatishdir. Mutaxassislar kasbga yo'naltirishga quyidagicha ilmiy ta'rif beradilar: “Kasbga yo'naltirish – bu mamlakat iqtisodiyoti, alohida tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalar manfaatini hisobga olib, odamni o'z layoqati, qiziqishlari, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlari, rivojlanish istiqboli hamda mehnat zahiralarining to'laonli taqsimlanishi zarurati asosida mustaqil ravishda kasb tanlash zarur.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning - undovchi va tormozlash vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi. Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan taxminlanadi. Harakat oldingi vaziyat bilan bog'liq bo'lgan paytdagi reaktivlikdan farqli o'laroq faollik harakatning ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki xolatiga nisbatan sub'ektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chiqaradi.

Kishining harakatga undovchi mayillari ma'lum bir yo'lga solingan sistemani oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, issiq va sovuqdan yashirinish ehtiyojidan tortib to ma'naviy, estetik va intellektual xis-tuyg'ularni boshidan kechirish bilan bog'liq yuksak niyatlarga borib taqaladigan motivlar ierarxiyasini tashkil etadi. Agar yuksak motivlar deb quyilari, shu jumladan, hayotiy, muxim motivlar tuzilishi va tutib turilishi yuz bersa, bu irodaning namoyon bo'lish xisobiga bo'ladi. Kishining o'z kasbi yuzasidan tavakkalchilik sharoitidagi xatti-harakati irodaning xarakterli ko'rinishlaridan biri.

Tavakkalchilik - bu sub'ekt uchun uning ichki noma'lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin bo'ladigan noqulay oqibatlar (jazolash, og'riq ta'sirini o'tkazish, travma, obro'ni yo'qotish va shu kabi) haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning xarakteristikasi hisoblanadi. Tavakkalchilik paytida kutilayotgan kasbdagi noxushlik bunday xolatdagi muvaffaqiyatsizlik extimoli va noqulay oqibatlar darajasining uyg'unlashtirilishi bilan belgilanadi.

Tavakkalchilikning **birinchi sababi** va turi bu yutuqqa umid bog'lash, muvaffaqiyat qozonilganda kutilayotgan kattalikning muvaffaqiyatsizliklar oqibati darajasida ortishidir. Tavakkalchilikda oqlangan va oqlanmagan tavakkalchiliklar bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Oqlangan tavakkalchilik yakunning xar qanday noaniqligi va muvaffaqiyatsizlik keltirishi mumkinligiga qaramay oqlanmagan tavakkalchilikdan farq qilib, irodaviy qarorga kelayotgan paytda barcha «yoqlovchi» va «qarshilarni», tavakkalchilik xatti-harakatini belgilovchi motivlarning g'oyaviy va axloqiy yuksakligi, oqilona ravishda o'ylab ko'rishni va shunday qilib, harakatning xavfsizlik variantiga nisbatan xavfli variantini afzal ko'rishni nazarda tutadi. Bunda harakat (ishning yakuni tasodifga) omad keladi yoki kelmaydi bog'liq bo'ladigan yoki, aksincha, muvaffaqiyat tavakkal qilayotgan kishining shaxsiy sifatleri (uning qobiliyatlari, qat'iyligi, malakalari va boshqalar) bilan belgilanadigan vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Tavakkalchilikning **ikkinchi turi** «vaziyat usti» yoki «xolis niyatli» tavakkalchilik deb, yoki bo'lmasa «tavakkalchilikni deb tavakkalchilik» qilish demakdir. Beg'araz tavakkalchilikning mavjud bo'lish fakti riskometr degan maxsus asbobda sinab ko'rish vaqtida aniqlanadi. Kuchli irodaga ega bo'lgan kishi qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni chog'da qat'iylilik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi

irodaviy fazilatlarini namoyon qiladi. Irodasi sust kishilar qiyinchiliklar oldida ojizlik qiladilar, qat'iyatlik, sabot-matonat ko'rsatmaydilar, xulq-atvor va faoliyatning yanada yuksak, ma'naviy jixatdan oqlangan motivlari uchun o'zlarini tuta bilmaydilar, bir daqiqalik mayilni yo'qota olmaydilar. Irodasi sustlikning namoyon bo'lish doirasi xuddi kuchli irodaning xarakterli sifatlari kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashqarida bo'ladi. Masalan, abuliya va apraksiya shunga kiradi.

Abuliya - bu miya potologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo'qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan xolda shunday qilaolmaslikdir. Vrachning aytganini bajarish zarurligini aniq faxmlagan abuliyaga muhtalo bo'lgan bemor buning uchun biron narsani qilishga o'zini majbur qila olmaydi. Tabiiy xulq-atvor uning uchun eng xarakterlidir.

Apraksiya - miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Agar nerv to'qimalarining buzilishi miyaning peshona qismlarida to'xtab qolsa, xatti-harakatlarni erkin to'g'rilashni buzilishida namoyon bo'ladigan apraksiya boshlanadi. Bu harakatlar berilgan programma va binobarin, irodaviy aktning bajarilishini qiyinlashtirib qo'yadi.

Irodaviy fazilatni baholash «kuchli-kuchsiz» ulchovi bilan ifodalanmasligi kerak. Irodaning axloqiy tarbiyalanganligi, agar xal qiluvchi bo'lmasa ham, muxim ahamiyatga egadir. Irodaviy ko'rinishlar xarakteristikasi, ularning ma'naviy bahosi irodaviy akt amalga oshirilishining asosiga quyilgan motivlarning sotsial ahamiyatiga bog'liq. Ma'naviy jixatdan tarbiyalangan irodali kishi eng avvalo o'zining individual intilishlarini irodaga va jamoa obro'-e'tiboriga, jamiyat manfaatlariga bo'ysundiradigan jamoachidir. Irodani tarbiyalash xususida so'z yuritganda irodani mustaqil tarbiyalash usullari xar xil bo'lishi va ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishini bilishimiz lozim:

1. Irodani tarbiyalashni nisbatan arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak;
2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi;
3. Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak;

Agar kishi uzoqqa muljallangan maqsadni oldiga qo'ygan taqdirda uzoq istiqbolni nazarda tutishi, bu maqsadga erishish bosqichlarini ko'rishi, yaqin kelajakka muljallangan istiqbolni ko'ra olish. Irodani tarbiyalash to'g'risida gapirilar ekan, faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishi faqat u yoki bu irodaviy fazilatlar shakllanishiga emas, balki belgilanadigan narsaning real bajarilish sharti sifatidagi tegishli ko'nikmalarning borligiga, qo'yilgan maqsadlarga erishilishiga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, asosiy irodaviy fazilatlarining rivojlanishi, kasb faoliyatida, kishining boshqa odamlar bilan doimiy muloqoti jarayonida, u bilan birgalikda ishlashi davomida yuz beradi. Jamiyatdan tashqarida, jamoadan tashqarida kishining irodasi normal rivojlana olmaydi. Shu bilan birga o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda iroda hayot faoliyati davomida muhim o'rin egallaydi.

REFERENCES

1. Gidkova E.B. Osnovi proforentatsii i professionalnogo konsultirovaniya: Uchebnaya posobie/ Pod red. E.L. Soldatovoy. - Chelyabinsk: Izd-vo YUURGU, - 2004. - 125s.
2. Gaynuddinova L.R. Boshlang'ch sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik omillari. // Maktab va hayot. 2014 / №2. 24-27b.
3. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and Karas Orzhanovich Kaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.
4. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.
5. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characteristics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
6. Ma'Mirjonovna, Omonova Sevara. "Oliy ta'limda ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning tashkiliy masalalari." *Ta'lim fidoyilari* 13 (2022): 41-45.
7. Ma'mirjonovna, Omonova Sevara. "ORGANIZATIONAL ISSUES OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL SERVICE DELIVERY IN HIGHER EDUCATION." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.04 (2022): 28-33.
8. Ma'Mirjonovna, Omonova Sevara. "Ta'limda psixologik xizmat ko'rsatishning nazariy va amaliy asoslari." *Ta'lim fidoyilari* 13 (2022): 37-40.
9. Mamirjonovna, Omonova Sevara. "THE SCIENTIFIC AND PRACTICAL PRINCIPLES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 607-610.
10. Yo'lchiboyeva, D. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari." *XALQ TA'LIMI* 1 (2021): 115-119.
11. Yulchiboyeva, Dilfuza. "Main tasks of educational processes." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.6 (2021): 23-27.
12. Ergashevna, Yulchiboyeva Dilfuza. "PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF EMOTIONAL STATES IN A PERSON." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.05 (2021): 583-587.
13. Ergashevna, Yulchiboyeva Dilfuza. "Psychological and Pedagogical Aspects of the Development of the Emotional Sphere of Preschool Children." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 5 (2022): 367-371.
14. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboyeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANAGEMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 529-537.